

ARXITEKTURA YODGORLIKLARINI SAQLASHDA SHAHARSOZLIK TADBIRLARI

Azamatjon Sotvoldiyev Akramjon o'g'li

AIQI assistent o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14055207>

Qadim zamonlardan boshlab dunyo madaniy taraqqiyotida ma'lum o'rin tutib kelayotgan O'rta Osiyo me'morchiligiga qiziqish bugungi kunda ham nihoyatda o'sib bormoqda. Ayni paytda zamonaviy shaharsozligimiz va me'morchiligimiz nafaqat sayyohlarning e'tiborini o'ziga jalb qila olmay, balki bu hududda yashayotgan xalq talablari va ehtiyojlariga ham javob bera olmayapti. Buning asosiy sababi zamonaviy me'morchiligimiz o'zining teran tomirlaridan ajratilgan holda rivojlanayotganligidadir. Chunki, Oktabr' inqilobidan keyin ba'zilar nazdida yanglishcha qoloq hisoblanmish bizning siyosiy-iqtisodiy jamiyat tuzumimiz yangicha taraqqiyotga yuz tutdi. Yevropa inqilobiy ruhi bilan sug'orilgan g'oyalarning kirib kelishi, uni tezroq hayotga tatbiq etish uchun bo'lgan intilish eski taraqqiyotni butunlay yangisiga o'zgartirishga zamin yaratdi. Natijada har bir mahalliy madaniyat namunasi qoloq, chetdan qabul qilingani ilg'or degan noto'g'ri tushuncha paydo bo'ldi. 1930—1950 yillarda esa siyosiy jihatdan noto'g'ri qo'yilgan "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" qabilidagi shiorlar va 1956 yilda qabul qilingan "Me'morchilik va qurilishda jimjimadorlikni bartaraf etish haqidagi" davlat qarori tezroq barcha badiiy ijodiyotni bir umumiy qolipga solishga qaratilgan edi. Buning oqibatida bir - biriga o'xshash, yuqoridan bo'ladigan ko'rsatmaga mos tushadigan qator badiiy jihatdan sayoz ijodiy asarlar, jumladan g'o'r me'moriy va shaharsozlik asarlari yuzaga keldi. Shaharlarni rekonstruksiyalash - bu katta o'zgarish va rivojlanish, yangilanish, shahar muhitini o'zgartirishga va mukammallashtirishga, ya'ni vorislik muammosi bilan uzviy bog'langan jarayondir. Bu biz yashayotgan ulkan, o'zining xilma-xilligi bilan bizni ezib va ilhomlantirayotgan dunyo. Shu bilan bir vaqtda bizga ishonchli panoh bo'luvchi fayzli uy.

Shaharana shu birgina va yagona so'z bilan biz Toshkent, ulkan Nyu-York va kichkina Chirchiq, qadimiy Samarqand, Shahrisabz, Buxoro va yagona kurortli Yangiobod, Shohimardon deb ataymiz. Odamlarning, uylarning, yo'llarning shunday turli-tuman uyumida qanday umumiylik bor? Ulardan har biri qanday qilib bizga shahar toifasini berish imkonini yaratadi? Ha, shaharning qandaydir yagona hammabop ta'rifi tuzilmagan ham, demak u turli birikmalarda muqobillashuvchi turli-tuman belgilarni o'z ichiga oluvchi ta'rifga ega bo'lishi lozim.



Bugun biz XXI asr shaharsozligi haqida o'ylashimiz lozim. Bu faqat kelajak uchungina emas, balki bizning hozirgi kun amaliyotimiz uchun ham muhimdir. Shaharlarimiz bosh tarxlari 25 yil muddatga tuziladi. Hozirgi zamon shaharsozligi bu faqatgina san'at emas, balki fan va texnika birligi hamdir. Bilimning ko'p sohalari yutuqlarini shaharsozlikchalik yuqori darajada birlashtiradigan ilm yo'qdir. Bu yerda hozirgi zamon shaharsozligi muammolari majmualarini hal etishda kuchli kompyuterlardan foydalanish talab etiladi.

Tarixiy manbaalar transport, shovqin, atrof – muhit ifloslanishi kabi muammolar o'tmishda ham mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi.

O'rta Osiyoda Islom nafaqat mustahkamlanibgina qolmay, balki ilmiy jihatdan ham taraqqiy eta boshladi. Yangi binolar turlari vujudga keldi. Jumladan masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa, karvon saroy, sardoba, xonaqoh, dorus-shifo (kasalxona) kabi yangi turdagi binolar, turar joylar, xammomlar shu kabi boshqa binolar shahar va qishloqlarda hamda boshqa aholi punktlari oralig'ida ko'plab qurildi.

Qo'qon nafaqat me'morlik balki, amaliy san'at rivojlangan markazlardan biri bo'lgan. Amaliy san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohalari me'morchilikda keng qo'llanilgan. Prezident SH. Mirziyovning "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", "Moddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [5] farmoni, shubhasiz, madaniyat sohasidagi yangi yutuqlar, o'zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qonunning asosiy vazifasi — tarixiy va madaniy merosni asrash, yoshlar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash, madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ayniqsa ta'lim sohasida xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining tarkibiy, ajralmas qismi sifatida qarash, madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash, madaniy meros obektlarining saqlanishi ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishdan iborat.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, shahar juda murakkab ravishda tuzilgan va unda bizning hayotimizni va bizni o'rab turuvchi dunyoning juda ham xilma-





DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



xil tomonlari turlicha o'zaro to'qnashadi. Darhaqiqat shahar-jamiyatning ijtimoiy strukturasi aks ettiruvchi jamiyat munosabatlari sahnasidir.

